

ZAMONAVIY O'ZBEKLARNING SUV BILAN BOG'LIQ MADANIYATI

*Jumma Buxorov Eshmamat o'g'li
Qarshi davlat universiteti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbeklarning suv bilan bog'liq madaniyati, suvdan samarali foydalanish, suvdan foydalanish va suv iste'moli bo'yicha qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilinishi haqida batafsил bayon qilingan.

Kalit so'zlar: suv, global ahamiyat, suv iste'moli, qonunchilik hujjatlari, xo'jaligi ob'ektlari.

Kirish:

Markaziy Osiyo xususan, O'zbekistonidagi suv va unga aloqador muammolar nafaqat mintaqaviy, balki global ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas. Mazkur masala bo'yicha chuqur ilmiy asosga ega tadqiqotlar ham bajarilmoqdaki, ular orasida o'zbekistonlik olimlarning ham borligi quvonarli.

O'zbekiston o'z rivojlanish yo'lida bir necha masalani maqsad qilib qo'yar ekan, suv muammolariga yechim topish ularning ichida ham eng birinchi o'rinda turadiganlaridan deyish mumkin. Chunki o'lkamiz qurg'oqchil hududlar qatoriga kirib, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishda katta salohiyatga, layoqatga ega, tabiiyki, bu suvsiz amalga oshmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Istiqlol yillarida Yurtboshimizning tarixiy xotirani tiklashga qaratilgan da'vati xalq donishmandligi xazinasini o'rganishga e'tiborni yanada kuchaytirdi. Chunki xalqimizning eng qadimiy ma'naviy an'analarini o'zida mujassam etgan bu qadriyatlar boy ijodiy salohiyatga ega ajdodlarimizning ko'p asrlik turmush tarzini, madaniyatini, e'tiqodiy qarashlarini o'ziga singdirib, mukammal tizim sifatida shakllangan.

Shu silsilada suv bilan bog'liq marosimlar va tushunchalarning ham o'z o'rni bor. Ular xalqimizning mifologik tasavvur-tushunchalari, suvgaga aloqador e'tiqodiy qarashlari, qadimgi turmush tarzi, o'tmisht madaniyati haqida o'ziga xos badiiy shaklda ma'lumot bera olishi jihatidan qimmatlidir. Bu yerlarning unumdar qismi sug'oriladigan yerlarga to'g'ri keladi. Ular esa hozirda eskicha sug'orish usulida sug'orib kelinmoqda. Yo'qotishlarni raqamlarda aytadigan bo'lsam, daryordan olinayotgan suvning taxminan 50-60 foizi dalaga, o'simlikka yetib borguncha bug'lanish yo'q bo'lib ketadi.

Natijalar:

"O'zagroinspeksiya" tomonidan joriy yilning mart oyida suvdan foydalanish va suv iste'moli bo'yicha qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilinishi, suv xo'jaligi ob'ektlarini o'z balansiga olgan subyektlar tomonidan suv olish limiti asosida suv

yetkazib berilishi hamda suv iste'molchilarini tomonidan suvdan oqilona foydalanilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatildi. Bu haqida "O'zagroinspeksiya" axborot xizmati xabar bermoqda.

Quyi bo'g'inda suv resurslarini boshqarish, suv tanqisligi sharoitida iste'molchilar o'rtasida suv taqsimlash, suvning hisobi va hisobotini yuritish hamda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, joylarda suvni yetkazib berish va suv iste'molchilarini orasidagi suv munosabatlarini takomillashtirish yuzasidan tuman irrigatsiya bo'limgari bilan klaster, fermer, dehqon xo'jaliklari va boshqa suv iste'molchilarini o'rtasida shartnoma rasmiylashtirish o'rganib kelinmoqda.

Muhokama:

Respublikamizda suv resurslari cheklangan bo'lishiga qaramasdan, uni tejashga kam e'tibor berilayapti, natijada suvning ko'p qismi bekorga sarf bo'lmoqda. Deyarli barcha iste'molchilar doimiy ravishda me'yordan ko'p suv olishga harakat qiladilar. Bu esa ekin maydonlarida er osti suvlari sathining ko'tarilishiga, erlearning qayta sho'rlanishiga olib kelmoqda. O'z navbatida sho'rni yuvish uchun yana katta miqdorda suv sarflanib, natijada sug'oriladigan erlarda hosil bo'ladigan qaytarma suvlar miqdori ham ortmoqda.

SHundan ko'rinib turibdiki, sug'orishda suvni tejashning katta imkoniyatlari mavjud. Bunga, avvalo, kanallar o'zanini betonlash, nov (lotok)lardan foydalanish yo'li bilan sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsientini oshirish, hamda sug'orishning ilg'or usullarini qo'llash bilangina erishish mumkin. O'lkamiz sharoitida foydalaniladigan suv resurslarining asosiy qismi (90 foizdan ortig'i) irrigatsiya maqsadlarida ishlatiladi. Uning qolgan qismidan esa sanoatda hamda maishiy va kommunal maqsadlarda foydalaniladi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yuqoridaq har uch yo'nalish ham yildan-yilga ko'proq suv talab qilmoqda va shu sababli o'lkamizda suv muammosi tobora tig'iz bo'lib qolmoqda. Ana shunday sharoitda suvdan tejab-tergab foydalanish, uning samarasiz yo'qotilishiga yo'l qo'ymaslik, qaytarma va oqava suvlardan unumli foydalanish, eng muhimi suv manbalarini ifloslanishdan va ortiqcha mineral lashuvdan saqlash asosiy vazifa bo'lib qoldi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. A.R.Muhammadjonov. O'zbekistonning qadimgi gidrotexnika inshootlari. "O'zbekiston" T-1997.
2. Bakiev M.R., Y.Angiev A.A., Qodirov O. Gidrotexnika inshootlari. – T., 2002.
3. Rahimboev F.M. Gidrotexnikadan ruscha-o'zbekcha qisqacha izohli lug'at. – T., 2000.
4. Bakiev M.R., Nosirov B.SH., Xo'jaqulov R.T. Gidrotexnika inshootlari. – T., 2007.
5. Yusupov G. U . Xolboyev B.M . Geologiya va hidrogeologiya asoslari. Ikkinch nashri.-T.: «Yangi asravlodisi», 2005,